

O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURTLARIDA TALABALARNI RAQAMLI MUHITDA INKLYUZIV TA'LIM SOHASIGA O'QITISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ В ОБЛАСТИ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТА- НА

MODERN APPROACHES TO TRAINING STUDENTS IN THE FIELD OF INCLUSIVE EDUCATION IN A DIGITAL ENVIRONMENT AT HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS OF UZBEKISTAN

AZAMXONOV BAXODIR SAYITKAMOLXONOVICH
Farg'ona davlat texnika universiteti, katta o'qituvchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida talabalarni inklyuziv ta'limga tayyorlashning dolzarb masalalari va muammolari tahlil qilingan. Unda bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish, maxsus ehtiyojli shaxslar bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda o'quv jarayoniga raqamli vositalarni joriy etish masalalari yoritilgan. Oliy ta'limda inklyuziv muhit yaratish va xalqaro tajribalarni tatbiq etish ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, oliy ta'lim, maxsus ta'lim ehtiyojlari, raqamli vositalar, pedagogik kompetensiya, adaptiv o'qitish, ta'lim integratsiyasi.

Аннотация. В данной статье анализируются актуальные вопросы и проблемы подготовки студентов к сфере инклюзивного образования в вузах Узбекистана. Рассматриваются аспекты формирования профессиональных компетенций будущих педагогов, развития навыков работы с лицами с особыми потребностями, а также внедрения цифровых инструментов в учебный процесс. Обоснована важность создания инклюзивной среды в высшей школе и внедрения международного опыта.

Ключевые слова: инклюзивное образование, высшее образование, особые образовательные потребности, цифровые средства, педагогическая компетентность, адаптивное обучение, интеграция образования.

Abstract. This article analyzes current issues and challenges in preparing students for inclusive education in higher education institutions of Uzbekistan. It examines the development of future teachers' professional competences, the enhancement of skills for working with individuals with special needs, and the integration of digital tools into the educational process. The importance of creating an inclusive environment in higher education and implementing international practices is substantiated.

Keywords: inclusive education, higher education, special educational needs, digital tools, pedagogical competence, adaptive teaching, educational integration.

KIRISH. Jahonda inklyuziv ta'limni samarali tashkil etish va amalga oshirishda talabalar o'quv jarayonini raqamlashtirish, ulardakasbko'nikmalarnielektronplatformlar asosida rivojlantirishga doir didaktik ta'minotni takomillashtirish, Raqamli ta'lim bo'yicha milliy o'quv dasturlarini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, raqamli ta'lim asosida raqamli ko'nikmalarni shakllantirish, kasbiy kompetentlikni rivojlantirishda psixologik-pedagogik xavflarga moslashuvchan interaktiv didaktik vositalarni ishlab chiqish, ta'lim oluvchi shaxsga yo'naltirilgan individual va defferensiyalashgan o'qitish texnologiyalarini takomillashtirish, raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash muhim ustuvorlik kasb etadi.

Buyuk Britaniya, AQSh, Finlandiya, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya kabi rivojlangan davlatlar tajribasi inklyuziv ta'lim muhitida faoliyat yurituvchi kadrlarni dasturli texnologiyalar asosida kasbiy tayyorlashni rivojlantirib borish muhimligini ko'rsatadi. Bu esa bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida raqamli kompetensiyalarini shakllantirish amaliyotini keng joriy etish muhimligini ko'rsatadi[1,3].

Dunyo miqyosida rivojlangan oliy ta'lim tizimlarida ta'limni boshqarish, ta'lim xizmatlarini ko'rsatish va o'quv-uslubiy jarayonlarini raqamlashtirish natijasida samarali natijalarga erishilayotganini ko'rishimiz mumkin. Shulardan kelib chiqib bugungi kunda respublikamizda davlat va ishlab chiqarish talabalari asosida pedagogik oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, xalqaro ta'lim tajribalarini o'rganish, raqamlashtirilgan muhitda faoliyat olib borish ko'nikmalariga ega o'qituvchilarni tayyorlash uchun yangi pedagogik model va texnologiyalarni ishlab chiqish talab qilinmoqda. Inklyuziv ta'limni raqamlashtirish, axborot texnologiyalaridan ta'lim vositasi sifatida keng foydalanish

bo'lajak o'qituvchilarning halqaro mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi va ishlab chiqarish talablariga tezroq moslashish imkonini beradi.

Oliy ta'lim tizimida pedagogik ta'limining o'ziga xos xususiyatiga yangi texnologik o'zgarishlar davrida halqaro standartlar va ish beruvchilarning talablariga mos keluvchi maxsus kompetensiyalar hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lajak o'qituvchi mutaxassislarini tayyorlashni tashkil etish jarayoni kiradi. Shundan kelib chiqib oliy ta'lim muassasalarida pedagogik yo'nalishi talabalarini o'qitish jarayoni sifatini metodik va texnologik tomondan takomillashtirish uchun zamonaviy ta'lim tendensiyalari, raqamli ta'lim texnologiyalari asosida tashkillashtirishni taqozo etadi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatning bir qancha farmon hamda qarorlarida belgilab qo'yilgan oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or pedagogik maktablarini yaratish, oliy ta'lim tizimini mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalari asosida tashkillash, mutaxassislar tayyorlash mazmunini tubdan yangilash, jahon standartlariga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash kabi masalalar oliy ta'limning zaruriy dolzarb vazifalaridan hisoblanadi[1-3].

Belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ijtimoiy-iqtisodiy sohalarning barcha bo'g'inlariga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish va ulardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish bugungi kunning dolzarb masalasi sifatida qaralmoqda.

Ta'limning barcha bosqichlarini raqamlashtirish va ta'lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining muhim ustivor vazifalaridan biri ekanligi Respublikamizda qabul qilinayotgan me'yoriy-huquqiy hujjatlar va qonunchilik normalarida ham ko'rsatib berilgan:

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079 son Farmonida ham ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni tadbiq etish muhim masala ekanligi ta'kidlangan.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni joriy etish jarayoni turli muammolar bilan yuzlashmoqda. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim davlat ta'lim tizimini rivojlantirishda asosiy mavzulardan biri hisoblanadi. U alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga oddiy maktablarda ta'lim olish uchun teng imkoniyatlar yaratishga qaratilgan. Inklyuziv ta'lim nafaqat ta'limiy, balki jamiyatning barcha qatlamlari ishtirokini talab qiladigan ijtimoiy loyihadir. O'zbekistonda bu soha faol rivojlanish bosqichida, ammo muvaffaqiyatga erishish uchun mavjud to'siqlarni yengib o'tish vauzoq muddatli strategik yechimlarni joriy etish zarur [1-4].

Inklyuziv ta'lim jismoniy, aqliy yoki ijtimoiy xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha bolalar uchun ta'lim olishda teng imkoniyatlarni ta'minlaydigan ta'limdagi yondashuvdir. O'zbekistonda inklyuziya mavzusi, ayniqsa, 2009-yildamamlakatda ratifikatsiya qilingan BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi kabixalqaro majburiyatlarni bajarish nuqtai nazaridan tobora dolzarb bo'lib bormoqda. Biroq, inklyuziv ta'limni joriy etish jarayoni kompleks yondashuvni talab qiladigan bir qator muammolarga duch kelmoqda.

Bugungi kunda ta'lim tizimi bilan bog'liq bir qator hal qilinmagan muammolar mavjud bo'lib, bu inklyuziv ta'limni ham o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limdagi dolzarb muammolar quyidagilardan iborat [1-5]:

1. Yetarli me'yoriy-huquqiy bazaning yo'qligi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va boshqa birqator me'yoriy hujjatlar kabi qonunlar mavjud bo'lishiga qaramay, inklyuziv ta'limning ko'pchiliklari batafsil

bayon etilmagan.

2. Raqamli vosita va texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega malakali kadrlarning yetishmasligi O'qituvchilar ko'pincha alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlikka ega emaslar, bu esa inklyuziv yondashuvni samarali joriy etish imkoniyatlarini cheklaydi.

3. Moddiy-texnik qiyinchiliklar ko'plab ta'lim muassasalari jismoniy, sensor yoki boshqacheklovlari bo'lgan bolalar uchun jihozlanmagan.

4. Stereotiplar va noto'g'ri qarashlar. Jamiyat ko'pincha inklyuziyaning ahamiyati haqida yetarlicha ma'lumotga ega emas, bu esa bunday bolalarning kamsitilishi va yakkalanishiga olib keladi;

5. Moliyalashtirishning yetarli emasligi. Inklyuziv ta'lim kadrlar tayyorlashdan tortib, moslashtirilgan infratuzilmani yaratishgacha bo'lgan katta sarmoyalarni talab qiladi. Inklyuziyaning muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya tizimlari sa'y-harakatlarining uyg'unligi zarur;

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etiladi:

- raqamli vosita va texnologiyalar asosida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim olishlari uchun zaruriy psixologik-pedagogik, korreksion sharoitlarni yaratish;

- ularning imkoniyatiga yunaltirilgan umumta'lim raqamli texnologiyalar dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- o'quvchilarning ta'limdagi tenglik xuquqini kafolatlash;

- jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog'lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;

- imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarni oilalardan ajramagan xolda yashash xuquqini ro'yobga chiqarish;

- jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va usmirlarga nisbatan do'stona va mexr muxabbatli munosabatni shakllantirishdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Respublikamizda ta'lim jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish G.Axmedova, B.Mirzahmedov, S.Qahharovlar, O'.Tolipov, J.Tolipova, M.Usmonboyevata'limniraqamlashtirishning didaktik-metodik imkoniyatlarini takomillashtirish G.Abdullayevalar, A.Ashirova, U.Begimqulov, R.Boqiyev, mustaqil o'quv jarayonini tashkil etish masalalari F.Anarbayeva, A.Maxmudov, M.Maxmudova, R.Djurayev, N.Sayidahmedovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rganilgan.

Maxsus ta'lim sohasida kadrlar tayyorlashning tashkiliy pedagogik aspektlari hamda imkoniyati cheklangan bolalarni o'qitish va tarbiyalashning korreksion-didaktik texnologiyalarini ishlab chiqish N.Abidova, M.Ayupova, D.Nurkeldiyeva, N.Muminova, Sh.Taxtayarova, R.Shomaxmudova, U.Fayziyeva F.Qodirova va D.Yakubjanovalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o'rganilgan. Kasb-xunar ta'limi, o'rta maktab o'quvchilari va oliy ta'lim talabalariga axborotlarni qayta ishlash usul va shakllari ko'rsatib berilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda mamlakatimiz o'quv va ilmiy adabiyotlarda inklyuziv ta'limni "raqamlashtirish", "raqamli inklyuziv ta'lim muhiti", "raqamli ta'lim resurslari", "axborot madaniyati", "IT kompetensiya", "kompyuter savodxonligi" kabi tushunchalarga katta e'tibor berilmoqda[1-3].

Raqamlashgan jamiyatda yashaydigan bo'lajak o'qituvchilar nafaqat kerakli ma'lumotlarni topish va qayta ishlash balki ijodiy-kreativ salohiyati orqali olingan bilimlarni jamiyatning innovatsion rivojlanishi sharoitida iqtisodiy, ekologik,

axloqiy va estetik jihatlarni hisobga olgan holda muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda samarali qo'llashni xam amalga oshirish zarur. Avvalo, bo'lajak o'qituvchi intellektual bilimlarni o'zlashtirish va rivojlantirish uchun axborot va raqamli texnologiyalaridan oqilona foydalanishni o'rganishi kerak. Shundan kelib chiqib bugungi zamonaviy raqamlashtirish sharoitida ta'limni axborotlashtirish, raqamli ta'lim resurslarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga samarali yo'naltirish juda muhim masaladir.

Inklyuziv ta'limda mutaxassisning axborot kompetensiyasi va jamiyatning axborot kompetensiyasi o'zaro rivojlanayotgan va bir-birini boyitadigan ob'ektlardir. Bugungi kunda ta'lim standartlarini ishlab chiqishda uning o'ziga xos xususiyatlari, tarkibini shakllantirish va baholashga yangicha yondashuvlarda "men bilaman va qila olaman" dan "bilaman, qila olaman va amalda qo'llay olaman" kabi tamoyillarga asoslangan standartlar, talablar, nizomlarga tayanishi kerak. O'zlashtirilgan bilimlarni amalda qo'llash, vazifalarni belgilash va ularni hal qilishda mustaqillik qaror qilish, yuzaga keladigan muammolar uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olish kabi ko'nikmalar "kompetensiya" tushunchasining asosini tashkil yetadi.

Oliy ta'lim mussasalarida bo'lajak o'qituvchining inklyuziv ta'limga oid boshqaruv va axborot madaniyatini shakllantirish o'ziga xos mafkuraviy, kasbiy, amaliy-yo'naltirilgan didaktik tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak. Bunda interfaol, motivatsion, ijodiy ta'lim va axborot texnologiyalariga tayangan holda o'quv jarayonini tashkil etish shakllari va usullaridan foydalanish ahamiyatli xisoblanadi. Oliy ta'lim o'quv jarayoni boshqarish nazariyasi va amaliyoti bo'yicha fundamental bilimlarga ega bo'lgan mutaxassislarning kasbiy mahoratini shuningdek, o'z kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan faol foydalanish

qobiliyatini o'zlashtirishlarini ta'minlashi kerak[4-6].

Bir qator chet mamalakatlarining tajribasini o'rganish jarayonida bizga shu narsa ma'lum bo'ldiki, taxminan 1970-yillardan boshlab nogironlarning ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida normativ aktlar paketi ishlab chiqildi va joriy qilinmoqda. Shunday qonunlarni va boshqa shunga o'xshash hujjatlarni hayotga tadbqiq etish, sog'lom bolalar bilan nogiron bolalarni huquqjihatidan barobar ko'rishning kompleks chora-tadbirlarida ifodalanmoqda. Bu imtiyozlar tartibi sog'lom bolalar bilan nogiron bolalarning jamiyatda bir xil imkoniyatlarga ega bo'lishlariga yordam beradi.

AQSH va Yevropa ta'limi siyosati tarixi davomida o'zlarining bir qancha rivojlanish yo'nalishlarini ishlab chiqdilar:

- maktab desegregatsiyasi;
- ta'limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish;
- meynstriling;
- raqamli integratsiya;
- raqamli inklyuziya.

Meynstriling – bu shunday strategiyaki, bunda nogiron bolalar o'z tengdoshlari bilan bayramlarda, turli xil darsdan tashqari vaqtlarda muloqot qiladilar, ayrim bolalar ommaviy maktablarning sinflariga ham kiritilib, ular ta'lim olish maqsadida emas, balki o'z tengdoshlari bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida kiritiladi[2-4].

Integratsiya-bu ruxiy va jismoniy nuqsonga ega bo'lgan bolalar ehtiyojlariga ko'ra ta'lim jarayonini amalgam oshirish; ular nogiron bolalar uchun moslashtirilmagan maktablarga boradilar, lekin maktabga borish majburiy emas, bu ularning xoxish-istaklaridan kelib chiqadi.

Yuqoridagi yondashuvlar bir qancha nazariy yo'nalishlarga asoslanadi:

- ijtimoiy odiylik nazariyasi;
- inson huquqlari, insonning

rivojlanishiga nisbatan ijtimoiy tuzim nazariyasi;

- tabaqalashtirish;
- ijtimoiy tanqid.

Agar nogiron o'quvchilarning ta'lim tizimi nazariyasi xaqida gapiradigan bo'lsak, u xolda U.Bronfenbrennerning 1979 yil ishlarini esga olish kerak. Bu olimning fikricha inson rivojlanish jarayonida ya'ni ulg'ayotgan, o'sayotgan individ atrof-olamni keng, differentsiyalashgan va adekvat anglay boshlaydi[5]. Bunday bo'lishning sababi vaqt o'tishi bilan bolalar o'zlarining ijtimoiy-ijtimoiy muxitlarini o'zgartirib, xarakat va muloqotga katta qiziqish bilan qaraydilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning xulq-atvorlarini nazorat qilish emas, balki ularda o'z-o'zini boshqarish malakalarini rivojlantirish kerak.

Xulosa va tavsiyalar. Bo'lajak o'qituvchilarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning nazariy, metodik va texnologik asoslari bo'yicha ko'plab ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lib, ushbu sohada muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, inklyuziv ta'lim amaliyotining kengayib borishi, gospiatal pedagogika elementlarining ta'lim jarayoniga joriy etilishi, ta'lim subyektlari o'rtasidagi hamkorlikni raqamli texnologiyalar asosida tashkil etish zarurati hamda bo'lajak o'qituvchilarning mazkur faoliyatga tayyorligini baholash mezonlarini takomillashtirish kabi masalalar hanuzgacha o'z yechimini to'liq topmagan.

Inklyuziv ta'lim tizimida quyidagi tavsiyalarni amalga oshirish ijobiy xarakterga ega:

- raqamli vosita va texnologiyalar asosida imkoniyati cheklangan bolalarning ta'limi uchun maxsus adaptive platformalar ishlab chiqish va joriy qilish;
- raqamli texnologiy dasturlari va korreksion ishlarni amalga oshirish orqali ruxiy rivojlanishi, ijtimoiy moslashtirishni amalga oshirish;

- Suniy intellekt texnologiyasi asosida o'quvchilarning ta'limdagi ishtirokini tahlil qilib borish;

- raqamli texnologiy dasturlari asosida jamiyatning va oilaning faol ishtirokini nogiron bolalar bilan ishlashga moslashtirish;

Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni

inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini tashkil etishga tayyorlashning dasturiy ta'minotini takomillashtirish, adaptiv elektron ta'lim muhitini yaratish va "Inklyuziv ta'lim. Gospiatal pedagogika" fani asosida samarali metodik modelni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Ture Yonson "Inklyuziv maxsus ta'lim" Operation study tashkiloti tomonidan tarjima kilingan. Toshkent-2003 yil. O'qituvchilar uchun qo'llanma.
2. Malofeev N.N., Shmatko N.D., st. «Bazovie modeli inklyuziv maxsusnogo obucheniya» Defektologiya №1 2008g.
3. Gudonis V.st. «Integrirovannoe obuchenie detey s narusheniyami zreniya» j-l Defektologiya №3, 2006g.
4. D.S.Qaxarova "Inklyuziv ta'lim texnologiyasi" Toshkent. 2014.
5. J.G'.Yuldashev, S.A.Usmonov. Pedagogik texnologiya asoslari. – T.: O'qituvchi, 2004.
6. Muminova, L. R. Shomaxmudova R.. "Imkoniyati cheklangan bolalarni individual korreksion / rivojlantirish dasturining uslubiy asoslari" uslubiy tavsiyanoma / "Razzokov O. J." XT bosmaxonasi 2007y.
7. Isoqov I., Qulmamatov S.I. Informatikani o'qitishda innovatsion texnologiyalar fanidan ma'ruza matnlari. Guliston, GulDU, 2013 y.